XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG’ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-may VII-8-58-4-68-K/25 Yakkabog’ tumani

Yakkabog’ tumanidagi 5 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlash to‘g‘risida

Yakkabog` tumandagi 5 ta geografik obyektni nomlash bo`yicha taklifni, O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Qashqadaryo viloyati hokimligi komissiyasi tomonidan Geografik obyektlarni nomlash bo’yicha taqdim etilgan takliflar Respublika toponimika boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda o’rganib chiqilib, Komissiya tomonidan tegishli qaror qabul qilingan. Bu haqida O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-martdagi 03/08-3097-sonli xati bilan qonunga muvofiq deb topilgan va ma`qullangan hamda Yakkabog’ tuman holimligining xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yakkabog’ tumanidagi 5 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlash to‘g‘risida O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 27-martdagi 03/08-3097-sonli xatiga asosan viloyat komissiyasi tomonidan ma’qullanganligi inobatga olinsin.

2. Yakkabog’ tumanidagi 5 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (D.Xushvaqtova) mazkur sessiya qarori bilan tasdiqlangan geografik obyektlarning nomlarini 10 kun muddatda davlat reyestriga kiritish uchun zaruriy ishlarni amalga oshirishni ta’minlasin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Yakkabog` tuman filiali boshlig`i (Z.Safarov)ga geografik obyektlarning nomlari bo‘yicha elektron bazasiga ushbu qarorga muvofiq belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi Yakkabog‘ tuman bo`limi boshlig`i (S.Avlayev), Yakkabog’ tuman qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limi boshlig’i

(A.Berdiqobilov) hamda MFY raislari bilan birgalikda tumanidagi 5 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlari yozilgan zamonaviy va milliy dizayn asosida peshlavhalar o‘rnatilishini ta’minlash va boshqa vakolat doirasidagi zaruriy ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman ichki ishlar bo`limi tumanidagi 5 ta geografik obyekt (qabriston)ni nomlarini zaruratga ko’ra inobatga olsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari E.Beknayevga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Juraev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDULAYEV
LUTFIDIN
DJURAYEVICH

Xalq deputatlari Yakkabog’ tumani
Kengashining
2025-yil 1-maydagi
VII-8-58-4-68-K/25 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o’rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert Komissiyasining xulosasi
1	Qabriston	Qayrag’och mahallasi	Toshqo’rg’on	Sarimtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Qabriston	Kenguzar mahallasi	nomsiz	Chag’atoy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Qabriston	Daryo mahallasi	nomsiz	Yakkaqayrag’och	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Qabriston	Xonaqo mahallasi	nomsiz	Tiktoshota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Qabriston	Ishkent mahallasi	nomsiz	Lashkarboshiota	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq